



UO‘K: 630*116.4

SHAMOL EROZIYASIGA QARSHI KURASHISH CHORA-
TADBIRLARI VA UNI OLDINI OLISH

Alimaxamatova Shahnoza Orifjonovna

“O‘zdavyerloyiha” DILI 3-bosqich doktorant

shahnozaalimahamatova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunning eng aktual masalalaridan biri qishloq xo‘jaligi yerlarini muhofaza qilish, degradatsiya jarayonlarini oldini olish va shamol eroziyasining yer ustki unumdor qatlamiga ta’siri, yer resurslaridan oqilona foydalanish uni muhofaza qilish haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Deflyatsiya, yerlar degradatsiyasi, yer resurslari, shamol eroziyasi, agrotexnik tadbirlar.

Kirish. Respublikamizda sug‘oriladigan va sug‘orilmaydigan cho‘l mintaqalarida shamol eroziyasi (deflyatsiya) ham e’tiborli darajada keng tarqalgan. Shamol eroziyasi Farg‘ona vodiysini Qo‘qon gruppasi tumanlarida, vodiyni markaziy Farg‘ona qismi, Buxoro vohasida (Shofirkon, Romitan, Qorako‘l, Vobkent, Buxoro, Qiziltepa, Konimex, G‘ijduvon tumanlari), Mirzacho‘lning shimoliy-g‘arbiy yerlarni (Qizilqumga yaqin Arnasoy tuman xo‘jaliklari) hamda Qashqadaryo (Kasbi tumani xo‘jaliklari), Surxondaryo (Termiz, Angor, Sherobod tuman xo‘jaliklari) viloyatlari yerlarida mexanik tarkibi yengil bo‘lgan qumli, qumoqli tuproqlarda keng tarqalgan bo‘lib, qishloq xo‘jaligiga katta zarar keltiradi; eroziya yerni ustki unumdor qatlami unumdorligiga juda katta, ba’zan tuzatib bo‘lmaydigan zarar yetkazadi, bunda yerni deyarli butunlay haydalma qatlamini shamol uchirib



ketadi, sugʻoriladigan konturlarda, yoʻllarda, aholi yashaydigan yerlarda qum tepalar (barxanlar) hosil boʻladi.

Shamol eroziyasiga qarshi kurashishning 5 xil usuli boʻlib ularga agrotexnik tadbirlar, organik usullar, biologik chora-tadbirlar, muhandislik choralari va tashkiliy huquqiy choralar kiradi.

1. Agrotexnik tadbirlarga - Minimal ishlov berish (kam ishlov) — tuproqning yumshatilishi va koʻchishini kamaytirish, konturli dehqonchilik — shamol yoʻnalishiga tik ravishda yerni ekish, qayta ishlovsiz ekish, tuproqda namlikni saqlash choralari — tez-tez sugʻorish, ekin aylanmasini tashkil etish — tuproqni tiklovchi ekinlar bilan almashtirishlar kiradi.

2. Organik usullarga - Oʻsimlik qoldiqlarini qoldirish — yer ustki qatlamini shamoldan himoya qilish, tabiiy yopindi (gazon, kovrak va boshqalar) — tabiiy tuproq ustki qoplamasilar kiradi.

3. Biologik chora-tadbirlarga - Shamol toʻsiqlari (panjaralar) — yongʻoq, terek, mojjaron kabi daraxtlar, saqllovchi oʻsimliklar ekish — kovrak, bodom, akatsiya va boshqalar, yaylovlarni rekultivatsiya qilish — oʻsimlik qoplamasini tiklashlar kiradi.

4. Injenerlik choralariga - Shamol toʻsiqlari qurish — mexanik yoki tabiiy toʻsiqlar, qum koʻchishini toʻxtatish — maxsus panjaralar, reshotkalar, suv xoʻjaligi tizimlarini yaxshilash — kanallar atrofini koʻkalamzorlashtirish kabilar kiradi.

5. Tashkiliy-huquqiy choralarga – Yer uni muhofaza qilish qonunlari va meʼyorlarini joriy etish, foydalanuvchilar uchun tushuntirish ishlari, oʻquv seminarlar, yerdan samarali foydalanishni davlat tomonidan nazorat qilishlar kiradi.

Shamol eroziyasi butun dunyo boʻylab qishloq xoʻjaligi samaradorligi va barqarorligiga taʼsir qiluvchi muhim ekologik muammodir. Bu hodisa Yer ustki unumdor qatlamini zarralarini suv va shamol kabi tabiiy kuchlar tomonidan ajratish, tashish va choʻktirishni oʻz ichiga oladi. Shamol



eroziyasining oqibatlari keng qamrovli bo'lib, unumdor qatlamining yo'qolishiga, qishloq xo'jaligi hosildorligining pasayishiga, suv havzalarida cho'kishiga, yerning umumiy degradatsiyasiga olib keladi. Yerlarning ustki unumdor qatlami eroziyasini bartaraf etish, ayniqsa, qishloq xo'jaligiga juda bog'liq bo'lgan tumanda juda muhim, bu yerda tuproq sifati oziq-ovqat xavfsizligi va iqtisodiy barqarorlikka bevosita ta'sir qiladi.

Bundan tashqari, qishloq xo'jaligining kuchayishi va o'rmonlarning kesilishi tufayli yer ustki unumdor qatlami eroziyasi dolzarb muammoga aylandi, bu esa noqulay ob-havo sharoitlari bilan bog'liq. Yerlar degradatsiyasini yumshatish va qishloq xo'jaligi yerlarini saqlash bo'yicha olib borilayotgan sa'y-harakatlar tumanda oziq-ovqat xavfsizligi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu muammolarni samarali hal etish tuman iqtisodiyoti va aholi turmushining uzoq muddatli barqarorligi va barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, hozirgi avlodninggina emas, balki kelgusi avlodlarning ham manfaatlarini ko'zlab, eroziyaga uchragan yerlardan foydalanish amaliyotini tubdan o'zgartirish va takomillashtirish xar doim dolzarb vazifadir. Mana shu yerlardan xo'jasizlarcha foydalanilgan taqdirda ular o'nglab bo'lmas darajada eroziyalanishi mumkin. Holbuki, 1 mm. tuproq qatlamini qayta tiklash uchun o'simlik qoplami yaxshi bo'lgan taqdirda 100-200 yildan 1000 yil va undan ham ko'proq vaqt talab etilishi ma'lum, ya'ni 1-10 yillar mobaynida yerdan noto'g'ri foydalanilishi oqibatida kamida 100 yillar va hatto 1000 yillar mobaynida tabiat kuchlari bajargan ishlarning natijalari yo'qqa chiqarilishi mumkin.

Xulosa taklif va tavsiyalar. Shamol eroziyasiga uchragan tuproqlarning unumdorligini tiklash uchun bir necha o'n yillar kerak bo'ladi. Shunday qilib shuni ta'kidlash lozimki, xozirgi mustaqil O'zbekiston xududida tabiiy va antropogen omillar ta'sirida yemirilish, yuvilish va uchirib ketish jarayonlari natijasida suv va shamol eroziyasi rivojlangan. Tuproq

eroziyasini kelib chiqish sabablarini va qonuniyatlarini hisobga olgan holda tuzilgan eroziya xaritalari eroziyaga xavfli yerlarni, eroziyalangan tuproqlarni, ularning melioratsiyasini, eroziyadan himoyalash uslublarini o'rganish va tadbiq qilish va vizual kuzatish uchun asosiy vosita sifatida foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Авезбаев С.А. Рациональное использование земель в низовьях Амударьи. – Монография. Мехнат, 1990 г. – 156 с.
2. Abdurazzoqov A.T., G'ofirov A.J., Sulaymonova M.X. "O'rmon tuzish asoslari va ixota daraxtlari polosalarini loyihalash" O'quv qo'llanma. Toshkent 2008-y.
3. Ibragimov O.A., Inamov B.N., Alimaxamatova Sh.O. "Assessing Soil Erosion Dynamics in the Bekabad district, Uzbekistan: A Remote Sensing Approach Integrating the RUSLE Model and Google Earth Engine" . // A Remote Sensing Approach Integrating the RUSLE Model and Google Earth Engine" // "Sustainable Geospatial Solutions for a Changing World" 6th Annual International Scientific Conference on Geoinformatics – GI 2024 19-20 November, 2024. E3S Web of Conferences indexed in SCOPUS.
4. Inamov B.N., Alimaxamatova Sh.O. **"Qishloq xo'jaligida shamol eroziyasining ta'siri"**. / "Yer resurslaridan foydalanishni raqamlashtirish va davlat kadastrlari munosabatlarini takomillashtirishda, ilmfan yutuqlari hamda inovatsion texnologiyalarni joriy etishning dolzarb muammolari" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi ma'ruzalar to'plami. 2023-yil 18-19-aprel. – Samarqand, 2023. - B. 343-350.
5. Inamov B.N., Alimaxamatova Sh.O. "Yer tuzishda shamol eroziyasining ta'siri va daraxtzor hududini tashkil etish tartibi". // "O'zbekiston zamini" ilmiy-amaliy va innovatsion jurnal. 2024-yil 14-iyun. 2-son. 49-53-betlar.



6. Josef K., Martin B., Jana P., Jan S., Petra F., Hana S. “Impact of Winter Conditions on Wind Erosion”. Impact of Winter Conditions on Wind Erosion Susceptibility of Clay Soils. 2024 in *Soil & Water Research*.
7. Jasper F. Kok, Eric J. R. Parteli, Timothy I. Michaels and Diana Bou Karam “The physics of wind-blown sand and dust”. Reports on Progress in Physics, 75, №10, article № 106901, in 2012 y.
8. Желтикова Т.А. “Лесоразведение на галечниковых землях”. Лесная промышленность, Москва, 1971.

